

«TASDIQLANDI»

Buyurtmachi nomi:

Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tuman

Tibbiyot birlashmasi boshlig'i

R.X.Qo'yiliyev

2022 yil



Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasiga karashli "Xujamulki" oilaviy
shifokorlik punkti binosini Joriy ta'mirlash ishlari

obyekti bo'yicha:

ENG YaXShI TAKLIFNI TANLASH UChUN HUJJAT

TANLASH HUJJATNI ISHLAB CHIQDI

Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tuman
tibbiyot birlashmasi

2022 yil

MUNDARIJA

Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tuman
tibbiyot birlashmasi

TANLASH HUJJATLARI

UMUMIY QISM

TANLASHDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN YO'RIQNOMA

TANLASH TAKLIFLARINI TEXNIK BAHOLASH MEZONLARI

TANLASH KOMISSIYASI TARKIBI

PUDRAT TASHKIOTLARINI ANIQLASH
SXEMASI

TEXNIK QISM

BAJARILADIGAN ISH HAJMLARI RO'YXATI

TIJORAT QISM

BUYURTMACHINING BOSHLANG'ICH NARXI

QURILISHNI YAKUNLASH MUDDATI

MOLIYALASHTIRISH MANBASI

MOLIYALASHTIRISH SHARTLARI

SHARTNOMA VALYUTASI

BARCHA QURILISH TASHKILOTLARI DIQQATIGA !!!

Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi
(Buyurtmachi tashkilot nomi)

ЭНГ ЯХШИИ ТАКЛИФНИ ТАНДЛАШ УЧУН ЭЪЛОН

Obyekt nomi: Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasiga karashli
“Xujamulki” oilaviy shifokorlik punkti binosini Joriy ta'mirlash ishlari
449,781,118. so'm. (QQS bilan)

Ishlarni tugallash muddati –125 kalendar kun.

Buyurtmachi: Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi
•, Tel (76) 46-52-406.

Moliyalashtirish manbasi: Byudjet mablag'lari hisobidan.

- ◆ Tanlash ishtirokchilari quyidagi talablarga loyiq bo'lishlari lozim: ish (xizmat)larni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarining mavjudligi, mutaxassislarining yetarli kasbiy va texnikaviy malakaga, moliyaviy imkoniyatlarga, shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala layoqati vakolatlariga ega va tajribali bo'lishlari shart.
- ◆ Mahalliy va xorijiy qurilish tashkilotlari tanlashda qatnashganda, tanlash takliflarini baholashda mahalliy tanlash ishtirokchilarga quyidagi narx ko'rsatkichlari hisobga olinadi:
- ◆ Takliflarni baholashda ishtirokchilarning tanlash takliflari qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan import qiluvchilarining tovar (ish, xizmat)lari qo'shilgan qiymat solig'i summasi qo'shimcha ravishda hisobga olinadi.

Tanlash ishtirokchilari tanlashda qatnashish to'g'risidagi takliflari va tanlash hujjatlarini etender.uzex.uz sayidan olishlari mumkin

- ◆ Tasdiqlangan tanlash hujjatlari buyurtmachi tomonidan joylashtiriladigan davlat xaridlari bo'yicha etender.uzex.uz maxsus axborot portalidan yuklab olishlari mumkin.
 - ◆ Takliflar tanlash tashkilotchisi tomonidan etender.uzex.uz elektron tanlash e'lonida chop etilgan kundan boshlab tugaydigan vaqtiga qadar qabul qilinadi.

Muxandis:

A.Ch.Jannazarov

TANLASHDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasiga karashli "Xujamulki" oilaviy shifokorlik punkti binosini Joriy ta'mirlash ishlari

(buyurtmachi nomi va obyekt nomi)

tanlashda ishtirok etishga tanlash ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi obyekt bo'yicha tanlash taklifini taqdim etilishini so'raymiz.

Obyekt nomi: Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasiga karashli "Xujamulki" oilaviy shifokorlik punkti binosini Joriy ta'mirlash ishlari

Joriy ta'mirlash boshlang'ich narxi – 449,781,118. **so'm.** (QQS bilan)

Ishlarni tugallash muddati – 125 kalendar kun.

Buyurtmachi: Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi

Tel (76) 46-52-406.

Moliyalashtirish manbasi: : Byudjet.

Taklif etilgan shartlar bo'yicha tanlashda murojaat bilan mahalliy tashkilotlar ishtirok etishlari mumkin.

Eng yaxshi taklifni Tanlashda ishtirok etishi uchun ishtirokchilarga quyidagi talablar qo'yiladi:

fuqarolik-muomala layoqati va shartnomalar tuzish vakolati;

doimiy xodimlari, jumladan muhandis-texnik xodimlariga ega bo'lishi;

ishlab turgan asosiy vositalari, shu jumladan ishlab chiqarish bazasi, mashina va mexanizmlar, kichik mexanizasiya vositalariga ega bo'lishi;

o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi (ko'rsatkich 0,2 koeffisiyentdan kam bo'limgan);

to'lovga qodirligi (ko'rsatkich 1,25 koeffisiyentdan kam bo'limgan);

tanlash obyektiiga o'xshash obyektlarda ishlaganlik tajribasi mavjudligi;

bajarilgan ishlari, shu jumladan o'z kuchi bilan oldin bajarilgan ishlari hajmi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

ustav fondi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar.

Agar tanlash predmeti bo'lgan ish (xizmat)larni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq lisenziyalanishi zarur bo'lsa, tanlashda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli lisenziyaga ega bo'lgan tanlash ishtirokchilarga ruxsat etiladi.

Quyidagi tanlash ishtirokchilariga tanlash jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (bo'linish, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

Har bir obyekt bo'yicha qurilishda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar ro'yhati to'liq ilova qilinishi kerak.

Har bir obyekt bo'yicha tenderga e'lon bergen vaqtida ishchilar soni va injener texnik xodimlar sonini to'liq ko'rsatilishi kerak. Mehnat daftarchalari va buyruq har bir ishchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bo'lishi kerak.

Agarda komissiya tomonidan tekshirishda yoki baholanganda noto'g'ri ma'lumot berilsa tender hujjatlari ko'rilmasdan qaytarib beriladi va chiqarib yuboriladi.

Tanlash taklifini tayyorlash va taqdim etish uchun kerakli barcha hujjatlar tanlash ishtirokchilari uchun yo'riqnomada aks ettirilgan.

Tanlash ishtirokchilari tanishib chiqish va tanlash taklifini tuzish maqsadida tanlash predmetining ta'mirlash hujjatlari, xususan, ta'mirlashning grafik qismi (chizmalar)ni taqdim etilishi haqida tanlash tashkilotchisiga murojaat qilishga haqlidir.

Buyurtmachi yoki tanlash tashkilotchisi obyektning ta'mirlash hujjatlarini, shuningdek uning grafik qismi (chizmalarning nusxasi yoki elektron varianti)ni tanlash ishtirokchilariga ularning birinchi talabidanoq taqdim etishga majbur.

Tanlash ishtirokchilari tanlashda qatnashish to'g'risidagi takliflari wa tanlash hujjatlarini etender.uzex.uz saydidan olishlari mumkin

Takliflarni topshirish tanlash ishtirokchisining tanlash hujjatlariga qo'yilgan talablarni o'rgangani va unda ko'rsatilgan ishlarni bajarish, ishlarning fizik hajmlari, material va konstruksiyalar hajmlari hamda boshqa shartlarga nisbatan ta'mirlashning tugallashga ta'sir etishi mumkin bo'lган savollar yo'qligiga dalolat hisoblanadi.

Takliflarni ochish tanlash e'lon qilingan sanadan boshlab 10 (o'n) kundan keyin tanlash komissiyasi tomonidan bo'lib o'tadi.

Muxandis:



A.Ch.Jannazarov

TANLASH ISHTIROKCHILARIGA YO'RIQNOMA

I. ISHLARNING QISQACHA TA'RIFI

1.1. Buyurtmachi - tanlash axborot jadvalida (keyingi o'rnlarda TAJ deb ataladi) ko'rsatilgan obyekt bo'yicha ishlarni olib borishni mo'ljallab, tanlash tashkilotchisi nomidan ish yuritib, TAJda ko'rsatilgan obyekt bo'yicha tanlash e'lon qiladi.

1.2. Tanlashning turi – ochiq tanlash, agar TAJda boshqacha aytib o'tilmagan bo'lsa.

1.3. Ishlar tanlash hujjatlarining ilovada ko'rsatilgan namunaviy pudrat shartnomasi talablariga binoan bajarilishi lozim.

1.4. Qurilish ishlari, O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi shaharsozlik normalari va qoidalariga to'la mos kelishini ta'minlash maqsadida, talab qilinadigan barcha ishchi kuchlari, qurilish materiallari, yonilg'i, jihozlar, umumiy va alohida xarakterdagi ish turlari, barcha zarur bo'lgan yo'ldosh va yordamchi ish va materiallар, tanlash ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

II. TANLASH HUJJATLARINING MUNDARIJASI

2.1. Ushbu tanlash hujjatlari O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021 yil 22 apreldagi №O'RQ 684-sonli qonuniga muvofiq haimda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagigi PQ-3953-sonli qarorining talablariga binoan ishlab chiqilgan va umumiy, texnik va tijorat qismlaridan iborat.

2.2. Umumiy qism tanlash ishtirokchilariga taklif, shartnomaning umumiy talablari va mazkur yo'riqnomani, shakl va ilovalar qo'shilgan holda, o'z ichiga oladi.

2.2.1. Shakllar ro'yxati:

1-shakl. Tanlash buyurtmasini ta'minlash kafolati.

2-shakl. Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar.

3-shakl. Tanlash ishtirokchisining moliyaviy ko'rsatkichlari.

4-shakl. Tanlash ishtirokchisining ish haqi jamg'armasi va hodimlar o'rtacha soni bo'yicha ko'rsatkichlari.

5-shakl. Bank kafilligi.

6-shakl. Tanlashdagi obyektga o'xshash obyektlarda oxirgi uch yillik ish tajribasi.

7-shakl. Tanlash ishtirokchisining ishlarni bajarishda foydalanadigan mashina va mexanizmlari ro'yxati.

8-shakl. Tanlash ishtirokchisining joriy davrdagi boshqa (pudrat shartnomalari) obyektlari.

9-shakl. Qurilish maydonchasini ko'zdan kechirganligi to'g'risida ma'lumotnoma.

2.2.2. Ilovalar ro'yxati:

1-ilova. Qurilishni bajarish buyurtmanomasi.

2-ilova. Obyektning qurilish ishlarni bajarish grafigi.

3-ilova. Obyekt qurilishimi moliyalashtirish grafigi.

4-ilova. Obyektning jamlanma jadvali, obyektda bajariladigan ish hajmlari ro'yxati, obyekt qurilishining shartnomaving narxini belgilashda ishlatalilgan asosiy narx shakllantiruvchi komponentlarning narxlari.

2.3. Texnik qism:

buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan qiymati kiritilmagan fizik ish hajmlari ro'yxati; (4-ilova asosida) jihozlar, material va konstruksiyalar buyurtmasining to'liq ro'yxatidan iborat.

Izoh: Ta'mirlashning xususiyatiga qarab texnikaviy qism tarkibiga TAJga binoan boshqa hujjatlar ham kiritilishi mumkin.

2.4. Tijorat qismi:

qurilishning boshlang'ich narxi;

qurilishning muddati;

moliyalashtirish manbasi, shartlari hamda shartnomada loyihasidan iborat.

III. ISHTIROKCHILARINING TANLASHDA ISHTIROK ETISH ShARTLARI

3.1. Mazkur ta'mirlash ishlari bo'yicha tanlashda taklif etilgan shartlar bo'yicha ishtirok etish maqsadida murojaat mahalliy va xorijiy qurilish tashkilotlari tanlash ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

3.2. Tanlash ishtirokchisi tanlashda ishtirok etish uchun tanlash tashkilotchisiga murojaat etishi, mazkur yo'riqnomaning VII bobi talablariga binoan tanlash taklifini taqdim etishi lozim.

3.3. Tanlash ishtirokchisi o'zining tanlash takliflarini tayyorlash va taqdim etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olishi kerak. Bunda buyurtmachi, tanlash tashkilotchisi va tanlash komissiyasi tanlash natijalaridan qat'iy nazar mazkur xarajatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

3.4. Tanlash ishtirokchilar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar (takliflar) tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

IV. TANLASH HUJJATLARIGA O'ZGARTIRISH KIRITISH

4.1. Buyurtmachi tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin tanlash hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Ish hajmlarni (xizmatlarni) o'zgartirishga yo'il qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlashda takliflar berish tugaydigan muddat tanlash hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak.

Shu bilan bir vaqtida, tanlash tashkilotchisi kiritilgan o'zgartirishlar haqida tanlashda ishtirok etish istagini bildirgan tanlash ishtirokchilariga bildirishnomalar yuboradi.

4.2. TAJda ko'rsatilgan muddat doirasida tanlash ishtirokchisi yozma ravishda tanlash tashkilotchisiga tanlash hujjatlari bo'yicha tushuntirish va aniqlik kiritish maqsadida murojaat qilishga haqli.

4.3. Tanlash tashkilotchisi tanlash ishtirokchisining so'rovi bo'yicha tanlash hujjatlariga oid ma'lumot va materiallarga tushuncha berish bilan bog'liq so'rovlar mohiyati bo'yicha takliflarni topshirishning TAJda ko'rsatilgan muddatdan kechikmasdan yozma ravishda javob berishga, so'rov manbasini ko'rsatmagan holda tanlashda ishtirok etish istagini bildirgan tanlash ishtirokchilariga javoblarni jo'natishga majbur.

4.4. Tanlash hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish ular buyurtmachi, tanlash tashkilotchisining shaxsiy tashabbusi bilan yoki tanlash ishtirokchisining so'roviga javoban amalga oshirilganligidan qat'iy nazar "Tanlash ishtirokchilariga xabarnoma" ko'rinishda rasmiylashtiriladi va tanlash hujjatlariga qo'shimcha bo'lib qoladi. Shu ko'rinishda rasmiylashtirilmagan o'zgartirishlar va ko'shimchalar kuchga ega bo'lmaydi. Buyurtmachi yoki tanlash tashkilotchisi tanlash ishtirokchilarini noqonuniy kiritgan o'zgartirish va qo'shimcha uchun javobgar bo'lmaydilar.

4.5. Tanlash ishtirokchilarini xabarnomani olgach uning ilova qilingan nusxasiga imzo chekib, darhol uni tashkilotchiga qaytarishlari kerak.

4.6. Tanlash ishtirokchilarini uchun xabarnoma tuzishdan oldin og'zaki shaklda qilingan yo'riqnomalar e'tiroz uchun asos bo'la olmaydi.

4.7. Tanlash ishtirokchilariga o'z takliflariga o'zgartirishlar kiritish uchun zarur vaqt taqdim etish maqsadida tashkilotchi tanlash komissiyasi bilan kelishilgan holda mazkur yo'riqnomaning XIII bobiga muvofiq takliflar taqdim etish muddatini uzaytirishi mumkin. Bunda tanlash ishtirokchilariga jo'natiladigan xabarnomada takliflar taqdim etish muddatini yangi oxirgi sanasi belgilanadi.

V. HUJJATLARNI O'RGANISH

5.1. Tanlash ishtirokchilarini tanlash va ta'mirlash ishlari hujjatlarini o'rganib chiqishlari kerak, tanlash ishtirokchilarini tanishib chiqish maqsadida tanlash predmetining ta'mirlash hujjatlarini, xususan, ta'mirlashning grafik qismi buyurtmachi yoki tanlash tashkilotchisi tomonidan taqdim etilishi haqida murojaat kilishga haqlidirlar.

Shuningdek, buyurtmachi yoki tanlash tashkilotchisi ta'mirlash hujjatlarini tanlash ishtirokchilariga ularning birinchi talabidanoq taqdim etishga majbur.

5.2. Tanlash ishtirokchilarini ishlari olib boriladigan yer uchastkasini, mavjud bino va inshootlarni borib ko'rishlari, joyning o'zida loyiha-smeta hujjatlarini o'rganish natijasida, talab etilgan ishlarni olib borish uchun hal etilishi lozim bo'lgan muammolarning mazmun va mohiyati bilan tanishishlari, shuningdek ish muddati va uning qiymatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa masalalarni o'rganishlari zarur.

5.3. Takliflarni topshirish tanlash ishtirokchisining yuqoridagilarni o'rgangani va unda bajariladigan ish hajmlariga, material va konstruksiyalarni hajmiga, boshqa shartlarga nisbatan, ta'mirlash tugallashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan savol yo'qligiga dalolat hisoblanadi.

VI. TANLAsh TAKLIFINI TAYYORLASH

6.1. Tanlash ishtirokchilarini tomonidan tayyorlangan taklif, tanlashga oid barcha xabarnomalar va hujjatlar, tanlash ishtirokchilarini bilan buyurtmachi va tashkilotchi o'rtaqidagi ma'lumot almashuvlar TAJda ko'rsatilgan tilda olib borilishi lozim.

6.2. Tanlash ishtirokchisi tomonidan tayyorlangan tanlash taklifida, unga oid barcha xabarnomalar va hujjatlarda metr sistemasi o'lchovidan foydalaniladi.

6.3. Tanlash ishtirokchisi tanlash taklifini mazkur tanlash hujjatlarini asosida tayyorlaydi. TAJda va tanlash hujjatlarining boshqa qismlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarda tafovut bo'lganida, tanlash ishtirokchisi tanlash taklifini tayyorlashda TAJ ma'lumotlarini hisobga olishi lozim.

6.4. Tanlash ishtirokchisi o'z tanlash taklifining tarkibida faqat to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etishi shart va ma'lumotlarning to'g'riligiga javobgardir.

VII. TANLAsh TAKLIFI TARKIBIDAGI HUJJATLAR

7.1. Tanlash takliflari, 7.7-bandda ko'rsatilgan hollardan tashqari, ikkita - birinchi va ikkinchi yig'ma jilddan iborat. Birinchi yig'ma jildga kiruvchi hujjatlarda tanlash taklifi qiymatiga oid hyech qanday axborotlar bo'lmasligi kerak. Taklifni tashkil etuvchi barcha narxlar, tariflar va yakuniy sumnalar faqat ikkinchi yig'ma jild hujjatlarida bo'lishi kerak.

7.2. Birinchi yig'ma jild tarkibidagi hujjatlar:

7.2.1. TAJda ko'rsatilgan summaga bank kafolatini (1-shakl) yoki ushbu summani buyurtmachining maxsus hisob raqamiga o'tkazish topshiriqnomasining nusxasini taqdim qilish yo'li bilan tanlashda ishtirok etish buyurtmanomasini ta'minlash amalga oshiriladi. Tanlash buyurtmasini ta'minlash kafolati obyekt boshlang'ich narxining 0,5 foizidan oshmasligi zarur. Tanlash buyurtmasini ta'minlash kafolatining amal qilish muddati TAJda ko'rsatilgan.

7.2.2. Tanlash ishtirokchisi haqida umumiyligi ma'lumotlar (2-shakl). Shaklni to'ldirishda mutaxassislar ro'yxati va ishchilar soni tanlash ishtirokchisi tomonidan mustaqil ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan xodimlarning haqiqatda mavjudligi, ularni ish stajini va malakasini tasdiqllovchi hujjatlar nusxasini taqdim etishga majbur.

7.2.3. Tanlash ishtirokchisiining oxirgi uch yildagi moliyaviy ahvoli (3-shakl). Shaklga Tanlash ishtirokchisi auditor kompaniyasining xulosasi yoki moliyaviy natijalar haqidagi hisobotlar (balans hisobotlar)ning nusxalarini ilova qilishga majbur. Agar TAJda boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, 4-shakldagi ma'lumotlar ming so'nda keltiriladi.

Obyektning buyurtmachi belgilangan boshlang'ich narxining 20 %gacha miqdoridagi aylanma mablag'lar mavjudligi (xizmat qiluvchi bank tomonidan tasdiqlangan aylanma mablag'larini mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi asosida baholanadi.)

7.2.4. Tender ishtirokchisining ish haqi jamg'armasi va hodimlar o'rtacha soni bo'yicha ko'rsatkichlari (4-shakl). Shakl tashkilotning oxirgi hisobot davri asosida moliyaviy ko'rsatkichlari to'ldirilib tegishli soliq organlari tomonidan tasdiqlanadi.

7.2.5. Tanlash predmetiga o'xshash obyektlarda oxirgi 3 yillik ish tajribasi (5-shakl). Ushbu jadvalda tanlash ishtirokchisi tanlash predmetiga o'xshash ishlarning asosiy turlarini ko'rsatib o'tishi (kengaytirilgan holda ham mumkin) va ushbu ishlarning bajarilgan summasini ko'rsatishi kerak. Shaklda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdig'i sifatida davlat qabul komissiyalarining dalolatnomalari (agar tanlash ishtirokchisi yordamchi pudratchi sifatida bo'lgan bo'lsa hisob-faktura ma'lumotnomalari) ilova qilinadi.

7.2.6. Tanlash ishtirokchisi ishlarni bajarishda foydalanadigan mashina va mexanizmlari ro'yxati (6-shakl). Agar TAJda boshqacha holat ko'rsatilmagan bo'lsa, ijara va lizing asosidagi mashina va mexanizmlardan foydalanishga ruxsat etiladi. Bunda tanlash ishtirokchisi ta'mirlash ishlarning bajarish davrida haqiqiy bo'lgan lizing yoki ijara sharnomasining nusxasini ilova qilishi kerak.

7.2.8. Talabgorning tanlash o'tkazilayotgan davrdagi joriy pudrat shartnomalari (obyektlari) bo'yicha ma'lumot. (7-shakl).

7.2.9. Qurilish maydonini ko'zdan kechirganlik to'g'risida ma'lumotnomasi (8-shakl).

7.2.7. Tanlash ishtirokchisiga berilgan, hujjatlarga imzo chekish va tanlashda qatnashish huquqini beruvchi ishonchnoyna (9-shakl). Tanlash ishtirokchisining birinchi shaxsi (rahbari) hozir bo'lganda ushbu shakl to'ldirilmaydi.

7.2.8. Ishtirokchining davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlarining nusxalari.

7.2.9. Lisenziyalar yoki ruxsatnomalar nusxasi, subpudratchining lisenziyasi va boshqa hujjatlari (ayrim hollarda), ruxsatnomalari nusxalari bilan birga, agar TAJda boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa. Lisenziyalar va ruxsatnomalar nomi ham TAJda ko'rsatilgan.

7.2.10. Yuqorida so'rالgan shakllar va hujjatlarga tanlash ishtirokchisi TAJda ko'rsatilgan tasdiqllovchi hujjatlarni ilova qilishi kerak.

7.3. 2-yig'ma jild tarkibidagi hujjatlar:

7.3.1. Ta'mirlash ishlarin bajarishga buyurtina (1-ilova).

7.3.2. Obyektning qurilish ishlarini bajarish grafigi (2-ilova).

7.3.3. Obyekt qurilishini moliyalashtirish grafigi (3-ilova).

7.3.4. Obyekt qurilishining shartnomaviy narxini belgilashda qo'llanilgan:

- jamlanma jadval;

- obyektda bajariladigan ish hajmlari jadvali;

- obyektda ishlataladigan qurilish materiallari (materiallar tasnifi va miqdori bilan) ro'yxatlari jadvali (4-ilova).

Bajariladigan ishlar hajmi jadvalini tanlash ishtirokchisi o'z taklifida har bir ish turi bo'yicha bir birlik ish hajmlari narxini resurslarni aks ettirmasdan taqdim qiladi.

Qurilish materiallari bo'yicha jadvalni to'ldirish yuzasidan 8.2 bandga qarang.

7.4. Buyurtmachi tanlashda qatnashish buyurtmasi ta'minotini quyidagi holatlarda qaytaradi:

7.4.1. Tanlash g'olibiga - shartnomasi (kontrakt) imzolanganidan keyin;

7.4.2. Boshqa ishtirokchilarga - tanlash g'olibi bilan shartnomasi (kontrakt) tuzilgandan so'ng, ammo ofertaning amal qilish muddatidan kechikmay;

7.4.3. Taklifni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqtı tugagunga qadar takliflarini qaytarib olgan ishtirokchilarga.

7.5. Buyurtma ta'minotini qaytarish, bank amaliyotlarining xarajatlaridan tashqari, qaytarish asosi vujudga kelgan vaqtan e'tiboran 10 (o'n) kun muddat mobaynida amalgalashadi.

7.6. Tanlashda ishtirok etishga buyurtma ta'minotini quyidagi holatlarda qaytarilmaydi:

7.6.1. Taklifni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqtı tugagandan keyin, unga o'zgartirish kiritgan, tender taklifining amal qilish muddati va 7.4.2 bandda ko'rsatilgan muddatdan oldin qaytarib olgan oferentga;

7.6.2. Tanlash g'olibi uning taklifi amal qilish davrida o'z taklifini qaytarib olganda yoki tanlash hujjatlarida belgilangan talablarda shartnomasi tuzishdan bosh tortganda.

7.7. Dastlabki malaka tanlashi orqali tanlash o'tkazilganda birinchi yig'ma jild hujjatlari malakaviy hujjatlar deb, ikkinchi yig'ma jild hujjatlari esa tanlash taklifi deb hisoblanadi.

VIII. TANLASh TAKLIFI NARXI

8.1. Ishlarning qiymati 4-ilovada ko'rsatilgan obyektda bajariladigan ish hajmlari ro'yxatiga binoan taqdim etilishi kerak. Obyektda bajariladigan ish hajmlari ro'yxatida har qaysi o'r'in bo'yicha bo'sh joylar tanlash ishtirokchisi taklif etayotgan baho ko'rsatilgan holda aniq to'ldirilgan bo'lishi lozim. Tanlash ishtirokchisi taklifining umumiyligi narxini aniqlashda oraliq summalar jamlanadi. Tanlash ishtirokchilar pudrat ishlari tanlashda ishtirok etayotganda obyektning taklif etilayotgan qiymatini, qurilish-montaj ishlarining shartnomaviy baholardagi to'g'ridan to'g'ri qiymati sifatida boshqa xarajatlar va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS)ni hisobga olgan holda belgilashlari kerak. Qurilish-montaj ishlarining to'g'ridan to'g'ri qiymatiga doimiy koefisient sifatida qo'llaniladigan boshqa xarajatlar qiymatini tanlash ishtirokchisi mustaqil ravishda belgilaydi va ishlar qiymatiga kiritadi. Bunda, tanlash ishtirokchisi tashkilotlar taklif etayotgan narxni hisoblashda 1 va 4-ilovalar talablariga amal qilishi shart.

8.2. Tanlash ishtirokchisi obyekt qurilishi (rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash)ning shartnomaviy narxini belgilashda qo'llanilgan qurilish materiallarning narxlar va komponentlar jadvalini to'ldiradi. Bunda qurilish materiallari turini tanlash hujjatlarida F-5 shaklidagi (lokal resurs qaydnomasi) ro'yxatdan oladi va pudratchi tomonidan mustaqil tanlash predmetining texnik jihatlaridan kelib chiqib to'ldiradi.

Har bir aniq obyekt asosiy qurilish materiallari nomenklaturasi (rasmiy ro'yxati) obyekti qiymatining 100 % ini (loyihada ko'zda tutilgan) tashkil etuvchi qurilish materiallarni hisobga olgan holda to'ldiriladi.

8.3. Tanlash ishtirokchisi obyektda bajariladigan ish hajmlarining baholangan ro'yxatini va asosiy narx shakllantiruvchi komponentlarning narxlar jadvalini bosma ko'rinishda, xat dog'larisiz va tuzatishlarsiz taqdim etishi kerak.

8.4. So'z bilan yozilgan narx va raqam bilan ko'rsatilgan narx orasida tafovut bo'lsa, so'z bilan ko'rsatilgan narx qabul qilinadi.

8.5. Hajim birligining qiymati va ishning uinumiy hajmi summasi orasida tafovut bo'lsa hajim birligiga belgilangan narx qabul qilinadi.

8.6. Tanlashda belgilangan qurilishning narxi va muddati o'zgartirilmaydi, qonunchilik bilan belgilangan holatlari (buyurtmachi tomonidan ishlar hajmini o'zgartirilishi, yengilmas kuch ta'siri, qurilishning bir yildan ortiq davomiyligi) bundan mustasno.

8.7. Shartnomasi narxini ikkinchi va keyingi yillarga muvofiqlashtirish asosiy narx shakllantiruvchi komponentlarning narxlar o'zgarganda qonunchilikda belgilangan tartibda olib boriladi.

IX. TANLASh TAKLIFINING AMAL QILISH DAVRI

9.1. Tanlash taklifining amal qilish davri tanlash takliflari ochilgan kundan boshlab 30 kundan kam bo'lmasligi kerak, agarda TAJda boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa.

9.2. Alovida hollarda taklifning birlamchi amal qilish davri tugash vaqtigacha tanlash tashkilotchisi tanlash ishtirokchilar bilan taklifning amal qilish muddatini uzaytirish haqida kelishishi mumkin, kelishuv yozma shaklda rasmiy lashtirilgan holda.

X. TAKLIFLARNI BERISH ShAKLI

10.1. Tanlash ishtirokchisi taklifni tashkil etuvchi barcha hujjatlarning bitta aslini taqdim etishi kerak.

10.2. Taklifning asli nusxasi bosma yozuvda bo'lishi kerak. 2,3,4,5,6,7,8-shakllarning va 1,2,3,4-ilovalarning har bir beti tanlash ishtirokchisi rahbari yoki vakolat berilgan shaxs tomonidan imzo chekilgan va tanlash ishtirokchisining mulri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. 8-shakl tanlash ishtirokchisining rahbari tomonidan imzolangan va uning mulri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

10.3. "Tanlash ishtirokchilariga xabarnoma"ga muvofiq zarur yozuvlar yoki tuzatishlar kiritilgan taklifning barcha betlari tanlash taklifi ostiga o'z imzosini qo'ygan shaxs tomonidan tasdiqlanishi kerak.

10.4. Taklifda o'zgartirishlar, satrlar orasiga kirimtalar va o'chirishlar bo'lmasisligi kerak. Tanlash tashkilotchisi xabarnomasiga muvofiq kiritilgan yoki tanlash ishtirokchisi yo'l qo'ygan xatolarni tuzatish uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlar bundan mustasno. Mazkur tuzatishlar taklif ostiga o'z imzosini chekkan shaxs tomonidan imzolanib, tasdiqlangan bo'lishi kerak.

10.5. Tanlash komissiyasi har qanday o'zgartirishlar, chetga chiqishlar yoki muqobil takliflarni qabul qilish yoki rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tanlash hujjatlari talablarini oshiruvchi o'zgartirishlar, chetga chiqishlar, muqobil takliflar va boshqa omillar tanlash takliflarini baholashda e'tiborga olinmaydi.

XII. TANLAsh TAKLIFINI BERISH

12.1. Takliflar tanlash tashkilotchisiga TAJda ko'rsatilgan tartibda, o'z muddatida va manzil bo'yicha taqdim etilishi kerak.

12.2. Dastlabki malaka tanlashi orkali tanlash o'tkazilganda (mazkur yo'riqnomaning 1.2-bandiga va TAJga qarang) dastlabki malakani o'tkazish sanasi tayinlanadi (TAJga qarang).

12.3. Buyurtmachi tanlash komissiyasi bilan kelishgan holda taklif berish muddatini uzaytirishi mumkin. Bu hakda tanlash tashkilotchisi tanlash ishtirokchilariga xabarnomalar orqali bildiradi.

12.4. Taklif tanlash tashkilotchisiga taqdim etilgandan so'ng, u taklif qabul qilinganligini alovida qayd etish kitobida ro'yxtatga oladi.

12.5. Buyurtmachi tomonidan ta'mirlash ishlari hujjatlari tanlash ishtirokchisiga mazkur yo'riqnomaning 5.3-bandi talablariga asosan taqdim etilmagan yoki rad qilingan hollarda tanlash ishtirokchisi tanlash taklifini topshirish muddatini uzaytirish haqida tanlash tashkilotchisiga murojaat qilishi mumkin.

12.6. Yuqoridagi bandda qayd etilgan holat bo'y bergan hollarda tanlash tashkilotchisi, buyurtmachi bilan kelishgan holda, tanlash ishtirokchisi buyurtmachidan loyiha hujjatlarini olganligi haqidagi dalolatnomani qabul qilgan kundan boshlab, eng kamida 3 kun muddatga tanlash taklifini topshirish muddatini uzaytirishi mumkin.

XIII. TANLAsh TAKLIFINI O'ZGARTIRISH YoKI HISOBdan CHIQARISH

13.1. Taklif berilganidan keyin tanlash ishtirokchisi tanlash taklifiga o'zgartirishlar kiritishi yoki uni hisobdan chiqarishi mumkin, shu shart bilanki, ushbu o'zgartirishlar yoki taklifni hisobdan chiqarish xabari takliflarni berish muddati ichida yozma ravishda tanlash tashkilotchisiga taqdim etilgan bo'lsa.

13.2. Tanlash ishtirokchisi kiritayotgan o'zgartirishlar yoki taklifni hisobdan chiqarish haqidagi xabarnoma mazkur yo'riqnomaning 11.5, 11.6, va 11.7-bandlariga binoan tayyorlangan, muhrlangan va belgi qo'yilgan bo'lishi hamda 12.1-bandda ko'rsatilgan tanlash takliflarini berish muddati tugamasdan oldin yetkazib berilishi kerak.

13.3. Takliflar berish muddati tugagandan keyin takliflarga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

XIV. TANLAsh TAKLIFLARINI OChISH VA BAHOLASH

14.1. Tanlash buyurtmaching manzilida o'tkaziladi, agarda TAJda boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa.

14.2. Takliflar (1 va 2-yig'ma jildlar) solingen konvertlarni ochish qatnashish istagini bildirgan tanlash ishtirokchisilar yoki ularning vakolatli vakillari hozirligida TAJda ko'rsatilgan manzilda, e'lon/taklifnomalar yoki xabarnomada ko'rsatilgan kun va soatda o'tkaziladi.

14.3. Tanlash ishtirokchilarini hozir bo'lgan vakolatli vakillari o'zlarining ishtiroki haqida guvohlik belgisi sifatida reyestrga o'z imzolarini qo'yishlari kerak.

14.4. Tanlash komissiyasi takliflarini hisobdan chiqarish haqida xabarnoma yo'llagan tanlash ishtirokchilarini e'lon qiladi (agar bo'lsa).

14.5. Taklifni hisobdan chiqarish haqidagi xabarnomalar berilgan takliflar ochilmaydi. Tanlash hujjatlarida belgilangan muddatdan keyin tushgan takliflar ko'rib chiqishmaydi. Takliflarni taqdim etish sanasi tanlash tashkilotchisining takliflarni olinganligi haqidagi pochta xabarnomasidagi belgi bo'yicha yoki tanlash tashkilotchisining takliflarni ishtirokchilarga berilgan sanasi haqidagi xabarnoma sanasi bo'yicha (takliflarni qo'lda yetkazib bergen hollarda) aniqlanadi.

14.6. Yig'ma jildlar tarkibini o'rganish va baholash, shuningdek tanlash g'olibini aniqlash yopiq yig'ilishlarda amalga oshiriladi. Tanlash takliflarini o'rganish va baholashga oid axborot oshkor qilinmaydi, qonunchilikda nazardautilgan hollar bundan mustasno.

14.7. Taqdim etilgan takliflarning ochilgunga qadar butligi uchun javobgarlik tanlash tashkilotchisi zimmasida bo'ladi.

14.8. Agar TAJda boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa, takliflarni baholash davri tanlash takliflari ochilgan kundan e'tiboran uzog'i bilan 10 kunni tashkil etadi.

14.9. Tanlash komissiyasi tashqi konvertni (1-yig'ma jild hujjatlarini) ochadi, takliflarni to'g'ri to'ldirilganligi, imzolanganligi va umumiy holati yuzasidan o'rganadi, tanlash ishtirokchilar malakasini baholashni amalga oshiradi.

14.10. Malaka baholanganidan so'ng malakadan o'tgan va 2 yig'ma jildni ochilishiga ruxsat olgan tanlash ishtirokchilari e'lon qilinadi. Tanlash komissiyasi 1-yig'ma jildlar tarkibini o'rganish va baholash natijalari e'lon qilinmasdan oldin tanlash ishtirokchilarining 2-yig'ma jildlarini ochishga xaqqi yo'q.

14.11. Tanlash komissiyasi ichki konvertni (2-yig'ma jild hujjatlarini) ochadi, ularni o'rganadi, baholashni o'tkazadi, g'olibni aniqlaydi yoki boshqa qarorlarni qabul qiladi.

14.12. Tanlash komissiyasining barcha qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, ovozlar teng bo'lganda komissiya raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

14.13. Malakani baholash va yakuniy baholash tanlash komissiyasi tasdiqlagan va ushbu yo'riqnomaning ilovalarida ko'rsatilgan baholash mezonlariga binoan amalga oshiriladi.

14.14. Tanlash komissiyasi tomonidan tanlash ishtirokchilar taqdim etgan ma'lumotlar noto'g'riliqi aniqlangan holda, tanlash komissiyasi ushbu tanlash taklifini rad qilishga haqli.

14.15. Tanlash komissiyasi tanlash hujjatlari talablaridan taklifdagi ahmiyatsiz farqlarni e'tiborga olmaslikka haqli, agarda ular boshqa qatnashchilar reytingiga ta'sir qilmasa.

14.16. Markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlarni baholash O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridları to'g'risida"gi Qonuniga binoan va TAJda ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.

14.17. Tanlash komissiyasining har bir yig'ilishiha bayonnomaga yuritiladi.

14.18. Tanlashga kiritilmagan yoki rad qilingan (diskvalifikasiya qilingan) takliflar bayonnomalarda qayd etilib, ularni rad qilish yoki diskvalifikasiya qilish sabablari ko'rsatiladi.

14.19. Tanlash komissiyasi tanlash takliflarini batafsil o'rganish va baholash uchun guruhrinini tuzishi mumkin. Baholash guruhrinining tarkibiga tanlash komissiyasi a'zolari bilan birgalikda jalb qilingan ekspert va konsultantlar (tanlash komissiyasining qarori bo'yicha) kiritilishi mumkin. Baholash guruhrinining a'zolari tanlash komissiyasi a'zolari kabi tanlashni tashkillashtirish va o'tkazishga doir qonunchilikka va mazkur tanlash hujjatlari talablariga rioya etish mas'uliyatini o'z zimmalariga oladilar.

XV. TAKLIFLARNI TUSHUNTIRISH

15.1. Tanlash komissiyasi takliflarni baholash va taqqoslash uchun taklifni tanlash komissiyasi inajlisida ko'rib chiqish vaqtida tanlash ishtirokchilaridan takliflar mazmuniga tushunchalar berishni so'rashi mumkin. Bunda taklifning mazmuni, shu jumladan narxi yoki bajarish muddatini o'zgartiruvchi tushuntirishlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

XVI. TANLASH ISHTIROKCHILARINING MALAKASINI BAHOLASH

(TEXNIK BAHOLASH)

16.1. Tanlash ishtirokchisini talab qilinadigan malakaga mos kelishini hal etish uchun to'ldirilgan shakllar va ularga ilova qilingan, uning taklifida taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlar o'rganiladi.

16.2. Tanlash ishtirokchilari takliflarini baholash ularni texnik jihatdan amalga oshirish yuzasidan TAJda ko'rsatilgan tanlash takliflarini baholash mezonlariga binoan baholanadi. O'rganish natijalari bo'yicha baholash guruhi a'zolari tanlash takliflarining baholash varoqlarini to'ldirishadi (texnik baholash varag'i TAJda alohida ilovalarda namunaviy jadvalda taqdim etiladi).

16.3. Agar TAJda boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa, baholash varag'i quyidagi shaklda to'ldiriladi: